O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

journal of contemporary scientific and technical research.2181-3884. 2023 in jbnuu. page 80-86.

4. Р.Абдуназаров. Bir o‘lchovli dirak tenglamasi uchun teskari masalani yechishda tezkor hisoblash algoritmini qurish masalalari. “Komputer ilmlari va dasturlash texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari. Jizzax 2023 yil 13 oktabr. T.1.№2 186-191

5. С.Шарипова. Р.Абдуназаров. Matematika darslarida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va uning ahamiyati. “Komputer ilmlari va dasturlash texnologiyalari” .mavzusidagi xalqaro ilmiy texnik konferensiya materiallari. Jizzax 2023 yil 13 oktabr. T.1. т.1. 177-179

6. Абуназаров Р. Abdurashidova L. Алгоритм восстановления оператора Дирака по двум спектрам. Международной научно-практической конференции “Актуальные задачи математического моделирования и информационных технологий» Том №1. Нукус, 2-3 май 2023. Стр.239-241

7. Абуназаров Р. Po’latov Baxtiyor, Noriyeva Aziza, Xolmanova Klara. Восстановления ядро спектральной меры оператора Дирака по неточным спектральным данным. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani. 27.05.2023. 258-262 betlar.

4-SHO‘BA

PSIXOLOGIYA,TABIIY VA ANIQ FANLAR SOHASIDA DOLZARB TADQIQOTLAR

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA MULOQOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI

G‘ulomitdinov Doston Isomoddin o‘g‘li,
Nasriddinova Mohichehra Shuxratovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o‘zlashtirish va o‘z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: shaxslararo munosabat, muloqot, inson tabiati, ehtiyoj, shaxs, komunikatsiya, informatsiya, regulyatsiya, aloqa, streotipizatsiya, refleksiya empatiya.

Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o‘zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: «Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir».

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash, o‘zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi.

M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan «Umumiy psixologiya» o‘quv qo‘llanmasida muloqot - bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo‘yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta'sir etishdir"- deb ta'kidlanadi. M.G.Davletshin rahbarligida chop etilgan «Psixologiya» qisqacha izohli lug‘atida muloqotga quyidagicha ta'rif beriladi: muloqot- ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta'sir etishidir.

Yuqoridagi ta'riflarga muvofiq muloqotga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: muloqot - kamida ikki kishining o‘zaro ta'sir jarayoni bo‘lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o‘rnatiladi, rivojlantiriladi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlashimiz lozim. Kommunikatsiya-tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi, bularning barchasi kommunikatsiyaga misol bo‘ladi. Muloqot faqat insonlar o‘rtasida amalga oshir ilishi mumkin. Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo‘lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug‘ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o‘z psixik taraqqiyoti bo‘yicha orqada qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi.

Muloqot jarayonida muloqot funktsiyalari ham muhim rol o‘ynaydi. Muloqot funktsiyalari deganda muloqotning inson hayotida bajaradigan funktsiyalari tushuniladi. Muloqot funktsiyalari xilma-xil bo‘lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra, ya'ni B.F.Lomov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u quyidagilardan iborat.

- ✓ Informatsion-kommunikativ funktsiya - axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va noverbal kommunikatsiya farqlanadi.
- ✓ Regulyatsion-kommunikativ funktsiyasi suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Individlar muloqot jarayonida verbal yo‘llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o‘tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullash-tiruvchi va korrektsiyalovchi tarzida ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

✓ Affektiv-kommunikativ funktsiya inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinatsiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo boʻladi va oʻzga radi.

Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat koʻrsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan muloqot vositasi til boʻlib, u muloqotga kirishuvchilar oʻrtasida aloqa bogʻlanishini ta'minlaydi. Tilni ushbu maqsad uchun tanlangan soʻzlar mohiyatiga koʻra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida oʻz xulq-atvorini oʻzgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi. Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga oʻz oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qoʻyadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo oʻzaro ta'siri sifatida namoyon boʻladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo boʻluvchi aloqa va oʻzaro ta'sirlar yigʻindisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida roʻy beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus hulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan.

Ijtimoiy normalar koʻlami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning «repertuar»iga mos holda namoyon boʻladi. Psixologiyada «rol» deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilardan kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan hulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, oʻqituvchi va oʻquvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rolida namoyon boʻlishi mumkin). Oʻz navbatida har bir rol oʻziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal boʻlsa shifokor koʻrsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondoʻst oila boshligʻi boʻladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning oʻzaro munosabati rolb kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yoʻqmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-koʻpmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti oʻzaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qoʻllanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani koʻrishga tayyor ekanligini toʻgʻri, aniq, xatosiz koʻchira olish qobiliyati takt deb ataladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, shaxslararo munosabatni samarali tashkil etishda muloqotning oʻrni va uning ahamiyati kata. Chunki, muloqot jarayonida shaxslararo axborot almashinishi, bir-birini idrok qilinishi va xulq-atvoriga ta'sir qilinishi asosida insonlar bir-birlarini tushunishi anglab yetishi , kollab quvvatlashi

bir maqsad sari harakatlanishi bir birlarini organish kabi muhum vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафитдинов, Абдулла, and Мохинур Бойкулова. "Формирование эмоционально-эмоциональной сферы детей младшего школьного возраста." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 342-345.
2. Бойкулова, Мохинур, and Гозал Одилова. "Исследование проблем формирования лидерства зарубежными психологами." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 410-413.
3. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Abduakhadova Mehribonu, and Boykulova Mokhinur. "The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 122-128.
4. Buribaevich, Murotmusaev Komiljon, Boykulova Mokhinur, and Abduakhadova Mehribonu. "Psychological Aspects Of Leader Traits In Boys And Girls In Different Family Settings." *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences* 5 (2022): 129-134.
5. Хасанова, Ирода, and Достон Гулямитдинов. "Развитие творческих способностей у детей раннего возраста." Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 15 (2023): 37-41.
6. Shakarboeva, Sh, and D. Gulomitdinov. "PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS." World Bulletin of Management and Law 21 (2023): 30-33.

ZAMONAVIY YOSHLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MULOQOTNING ROLI

Arakulov Gayrat Tulkinovich,
Pardayev Xumoyun Farxod o‘g‘li,
Daminova Sabina Bahrom qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
arakulov.gayrat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun yoshlarining kasbiy rivojlanishida pedagogik va psixologik muloqot, pedagog va o‘quvchi munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, muloqotdagi psixologik yondoshuvlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, psixologik munosabatlar, kasbiy rivojlanish, o‘quvchi, ijtimoiy munosabat, muloqotchanlik, psixologik muammolar, tushunish.